



# 11-bor o`tkazilayotgan Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivali (Qisqart:Higashikava yoshlar fest.)

## The 11th International High School Students'Photo Festival Exchange (HIGASHIKAWA Youth Fest.)

【Bosh tashkilotchi】 Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivali Ijroiya qo`mitasi

< Ta`sis tashkilotchilar >

Higashikava shahri, Higashikava turizm assotsiatsiyasi, Higashikava Savdo palatasi, Higashikava ta'lim kengashi, Higashikava xalqaro madaniyat va ijtimoiy farovonlik kasb-kunar kolleji, Higashikava jamoat targ`ibot MCHJ, Kitano Megumi MCHJ

【Qo`llab-quvvatlovchi tashkilotlar】 Yaponiya tashqi ishlar vazirligi, Xalqaro aloqalar bo'yicha mahalliy hokimiyat kengashi, Koreya Respublikasining Sapporodagi Bosh konsullik elchixonasi, Yaponiyadagi Tayland qirolligi elchixonasi, O'zbekiston Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, Kanadaning Yaponiyadagi elchixonasi, Latviya Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, AQShning Sapporodagi Bosh konsulligi, Myanmar Ittifoqi Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, Kolumbiya Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, Irlandiyaning Yaponiyadagi elchixonasi, Taypeyning Yaponiyadagi iqtisodiy va madaniy vakolatxonasi Sapporo filiali, Hokkaydo prefekturasi, Hokkaydo o`rta maktabi madaniyat federatsiyasi, Yuqori maktab madaniyat federatsiyasi Milliy fotografiya bo'limi, Canon. Marketing MCHJ, Sandisk MCHJ, EIZO MCHJ

【Homiy】 Kinki Nippon tourist aksiyadorlik jamiyati Asahikava filiali

【Texnik hamkor】 "Tokyo suratga olish oyi" ijroiya qo'mitasi, HJK AJ

東川オフィシャルパートナー  
partnership

amana  
visual communication experts

cybertrust

SOMPOケア  
介護の未来を変えていく

セブン銀行

NEC  
NECネットエスアイ

nulab

Canon  
キヤノンマーケティングジャパン株式会社

エフ・エヌ・エス  
エフ・エヌ・エス株式会社

Tsuna-Good!

EMS

第一生命  
Dai-ichi Life Group

SATUDORA  
HOLDINGS

CROSS PLUS

JAL  
JAPAN AIRLINES

明治安田生命

value create

あすみらい株式会社

FUJITSU  
富士通 Japan 株式会社

TTK  
東京通信工業株式会社

CKD

WHERE

POLYVALENT

株式会社 山一商事

岩塚製菓

Tokyo Camera Club  
東京カメラ部

心にく旅  
成意交通社  
Direct to your heart

R  
Rbody

日本カード株式会社

誠屋

日本生命  
NIPPON LIFE

MUFG  
三菱UFJ銀行

SEINO

dentsu  
hokkaido

AERONEXT

AOYAMA  
MEDICAL GROUP

neos

WORLD  
WIDE

HORIPEO

TOHO  
RESORT  
HOKKAIDO  
Go. Itel

日本郵便

RECRUIT

kanamoto

HiKOKI

RAMPS

三菱地所

住友生命

anchor

SOLIZE

hide kasuga 1896

扇電電気株式会社

Carero  
OSAKA

www.hayashi-corp.co.jp

NTS  
新エコーエス

Fujimi

【Yuqori sinf xalqaro fotosurat festivali ijroiya qo`mitasi】

Indeks: 071-1426, Hokkaydo, Kamikava-gun, Higashikava-cho, Kita-machi 1-1-2 TEL:0166-82-2111 FAX:0166-82-5111 URL: <https://higashikawa-youth-fest.jp>

## Hokkaydodagi “Fotosuratlar shahri” bo`lgan Higashikava shahri haqida

Higashikava shahri Hokkaydoning markaziy qismida joylashgan bo`lib, Xalqaro almashinuv va foto san`at orqali, tabiat va madaniyat uyg'unligini mujassam etgan shaharni dunyoga tanitishni maqsad qiligan holda, 1985-yil iyun oyida “Fotosuratlar shahri” deb e`lon qilingan.



### Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivali – bu?

2015-yil Hokkaydoning “Fotosuratlar shahri” bo`lgan Higashikava shahri, kelajakda muvozanat va mo`tadillikka ega shaharni maqsad qilib, fotosuratlar san`ati asosida, dunyo xalqlarini birlashtirgan holda, kelajak avlod bo`lgan yuqori sinflarni o`zaro almashinuv orqali do`stlik doirasini kengaytirib, dunyoda tinchlikni yoyishini maqsad qilib festival o`tkazishni boshladi.

Higashikava o`zaro aloqa almashadigan mamlakatlar/mintaqalardan mavzuga muvofiq asarlar (fotosuratlar) kompozitsiyasini e`lon qiladi va har bir mamlakat/mintaqa tomonidan tanlangan maktablar Higashikavaga taklif qilinadi va yuqori sinflar orasida fotosuratlar orqali o`zaro almashinuv hamda do`stlik doirasini kengaytiradi.

#### **Tanlov ishtirokchilari** ※Mamlakat va mintaqalar tashkilot tomonidan belgilanadi

2026 yilda taklif qilingan mamlakatlar quyida ★ bilan belgilangan. © belgisi bilan belgilangan mintaqalar shtirokchilari har yili qatnashadi.

Qit`a	Davlat	Shahar, hudud	2026-yil taklif etilgan davlatlar
Osiyo mintaqasi (12ta davlat)	★©Xitoy xalq respublikasi	Pekin, Syamin	★10 ta davlat taklif qilingan
	Janubiy Koreya	Yongvol-gun	
	★©Tayvan	barcha viloyatlar	
	★©Tayland Qirolligi		
	★©Vyetnam Sotsialistik Respublikasi		
	★©O`zbekiston Respublikasi	Toshkent	
	★©Indoneziya		
	Myanmar Ittifoqi Respublikasi	Yangon	
	★Malayziya	Kuala-Lumpur	
	★©Mo'g'uliston	Ulan-Bator	
	★©Laos		
★Singapur			
Yevropa mintaqasi (6ta davlat)	Latviya	Ruyena	★3ta davlat taklif qilingan
	★Finlandiya Respublikasi	Kangasala	
	★Rossiya Federatsiyasi	Aniva	
	Fransiya		
	Lyuksemburg	Lyuksemburg	
★Irlandiya			
Shimoliy, Janubiy Amerika, Okeaniya (4ta davlat)	★©Avstraliya	Kyanber	★4 ta davlat taklif qilingan
	★Kanada	Kanmor	
	★AQSH	Nyu-York shtati	
	★Kolumbiya respublikasi	Boyaka	

※ Yuqorida sanab o`tilganlardan tashqari boshqa shahar, viloyat va tumanlardan arizalar qabul qilinmaydi.

※※ Taklif yuborilmagan yillarda ham boshqa viloyatlar ishtirok etishi mumkin. Biroq Asahikava aeroportidan Higashikava shahrigacha bo`lgan yo`l harajatlari va turar joy bog`liq harajatlarni Higashikava shahri o`z zimmasiga oladi. Biroq Asahikava aeroportigacha bo`lgan aviachiptalar o`z hisobidan ishtirok etadigan davlatlar o`ziga yuklanadi.

## Xalqaro fotosurat festivaliga hujjatlar topshirish xususida

---

### A Talablar

- Yuqori sinflar orasida 3ta o'quvchidan iborat jamoa tuzib, ariza topshirishi kerak (o'quvchilar yoshi Yaponiyadagi yuqori sinflar yoshiga teng bo'lishi kerak, ya'ni 16-19 yoshlar).
  - Jamoa rahbari (bitta o'qituvchi) ariza topshirayotgan maktabdan bo'lishi kerak.
  - Bitta maktabdan faqat bitta ish/bitta jamoagina taqdim etishi mumkin. Bir nechta ishlar qabul qilinmaydi.
- Fotosuratlar orqali xalqaro almashinuvga qiziqishi bor yuqori sinflar.

### B Fotosurat mavzusi [Mintaqaning jozibadorligi]

### C Ishni topshirish qoidalari

1. Fotosuratlar raqamli formatda bo'lishi kerak.
2. Fotosuratlar **biror joyda (ko'rgazma/boshqa tanlovlarda) nashr etilmagan** bo'lishi kerak (saralash bosqichidan o'tgan bo'lishidan qat'iy nazar, fotosuratlar orasida bironta surat nashr etilgan deb topilsa, tashkilotchilar festivalda ishtirokingizni bekor qiladi).
3. Bitta maktabdan faqat bitta jamoa qatnasha oladi. Bitta maktabdan bir nechta jamoa qatnasha olmaydi.
4. 6 ta fotosuratdan iborat bitta ishni topshiring.
5. Fotosurat RGB rejimda, JPEG formatda, o'lchami 1024 pikseldan ko'p bo'lishi va fotosurat tiniqligi 72 pikseldan ko'p bo'lishi kerak.
6. Fotosuratlarni elektron pochta orqali yuboring. Fotosuratlar hajmi katta bo'lsa, onlayn saqlash xizmati (xosting serviz) orqali foydalanishingiz mumkin.
7. Fotosuratlar nomini raqamga o'zgartiring.
8. "Festival ariza shakli" ni to'liq to'ldirilib, maktab direktori imzosi bo'lishi kerak. "Festival ariza shakli" PDF formatda fotosuratlar bilan birga elektron pochta orqali yuboring.
9. Taqdim etilgan ishlar tashkilotchilar tomonidan o'tkaziladigan ko'rgazma, bosma materiallarda chop etilishi va internet saytlarida bepul joylashtirilishi mumkin.

### D Fotosuratlar va hujjatlar topshirishning oxirgi muddati:

**2026 yil 15-may (juma) 17:00 gacha (Yaponiya vaqti) jo'natib bo'lgungacha muddat**

### E Ishlarni topshirish uchun elektron pochta manzili:

Kotibiyat elektron manzili: [kouryu@town.higashikawa.lg.jp](mailto:kouryu@town.higashikawa.lg.jp)

※ Hujjatlarni jo'natishda elektron pochta manzili sarlavhasini "Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivaliga ariza" deb nomlang va hujjatlarni yuqorida ko'rsatilgan tashkilot elektron pochta manziliga jo'nating.

※ Tasdiqlash uchun hujjat jo'natgan elektron manzilga javob xati jo'natiladi.

### F Ishlarni baholash tartibi

Uch nafar hakamlar fotosurat ishlarini baholab, yakuniy qarorni chiqaradi.

※ Ba'zi mamlakat/mintaqalarda tanlov koordinatorlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

### G Tanlov natijalarini e'lon qilish va boshqalar

- (1) Tanlov iyun oyi oxirida o'tkaziladi.
- (2) Hakamlar tomonidan tanlab olingan maktablar iyul oyi boshida bosh sahifada e'lon qilinadi va ular to'g'ridan-to'g'ri maktablarga xabar qilinadi. Rasmiy saytni ham kuzatib boring.
- (3) Tanlangan maktablarga festival nomi yozilgan jild va tabriknoma yuboriladi.

(4) Tanlangan maktablarning taqdim etilgan ishlari festival davomida namoyish etiladi.

## Xalqaro fotosurat festivalining umumiy tavsifi

### A Mazmuni

Har bir mamlakat/mintaqadan tanlangan maktablar (xorijdan tanlangan maktablar + mahalliy maktablar) Hokkaydonging "Fotosuratlar shahri"- Higashikava shahrida yig'ilib, raqamli kameralarda, Higashikavaning jozibali manzaralari atrofida fotosessiya o'tkaziladi.

Mavzu asosida suratga olish maydonlari belgilanib, suratga olish/ fotosurat tanlash/ko'rgazmaga tayyorgarlik o'tkaziladi. Bitta sarlavha bilan 6 ta fotosurat jamlanmasi yoki 1 ta alohida mavzuli fotosurat ishtirokchi guruhlar tomonidan taqdim etiladi.

\*Festival rejasiga oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirilishlar kiritilishi mumkin.

### B Festival davomiyligi "Tadbir o'tkazilish davri"

2026-yil 17-23 avgust kunlari, ular orasida "Tadbir o'tkazilish davri" 2026-yil 18-22-avgust kunlari

### C Festival o'tadigan joy

(1) Higashikava shahri madaniyat almashinuv markazi Sentopyua I

(2) Higashikava shahridagi turli ko'zga ko'ringan maskanlari

### D Jadval (festival rejasini)

**17-avgust (du.)** ■ Higashikava shahriga kelish

**18-avgust (se.)** ■ Jamoaviy suratga olish (fotosessiya) ■ Suratga olish uskunalarini olib turish (faqat tegishli shaxslar uchun) ■ Ochilish marosimi ■ Yapon tili darsini kuzatish ■ Tanishtiruv ■  
(Higashikavaga kelish munosabati bilan) kechki ovqat

**19-avgust (chor.)** ■ Suratga olish I ■ Suratga olish II ■ Suratga olish III ■ Yapon madaniyat almashinuv

**20-avgust (pay.)** ■ Fotosuratlar tanlovi (1) ■ Suratga olish IV ■ Hakamlar uchun ilk surat tanlovi

**21-avgust (ju.)** ■ Suratga olish V ■ Fotosuratlar tanlovi (2) / Fotosuratlar ko'rgazmasi

■ Texnikalarni qaytarish (faqat olib turganlarga tegishli) ■ Onlayn ovoz berish ■ Ovoz berish  
■ Shahar tashqarisiga sayohat

**22-avgust (shan.)** ■ Taqdirlash marosimi/Yopilish marosimi ■ Xalqaro madaniyat almashinuv

**23-avgust (yak.)** ■ Festival tugashi (ishtirokchilarning qaytishi)

### E Hakamlar

Fotosuratlar 2 nafar xorijlik va 3 nafar mahalliy hakamlar tomonidan baholanadi.

### F Festival sovrinlari

Festival sovrinlari	Guruh bo'yicha	Yakka ishtirokchi	Sovrin
"Fotosuratlar shahri" - Higashikava mukofoti (Oltin mukofot)	1ta	1	faxriy yorliq, mukofot
Higashikava sayyohlik uyushmasi mukofoti (Kumush medali)	1ta	1	faxriy yorliq, mukofot
Higashikava xalqaro madaniyat va ijtimoiy farovonlik kasb-kunar kolleji mukofoti (Bronza medali)	1ta	1	faxriy yorliq, mukofot
Maxsus mukofot (Yuqori sovrin) # homiyilar tanlagan mukofot	1ta		faxriy yorliq, mukofot
Ishirokchi, kuratorlar tanlagan fotosurat mukofoti	1ta	1	mukofot
Maxsus tanlov mukofoti (internet tarmoqlari orqali)	1ta	1	mukofot

## G Internet tarmoqlari orqali ovoz berish

Festivalning “Maxsus tanlov mukofoti” sovrini dunyodagi internet tarmoqlaridan to’plangan ovozlar orqali tanlanadi. Ovoz berish quyidagi vaqt jadvali bo’yicha o’tkaziladi:

### • Fotosuratlar uchun onlayn ovoz berish vaqti :

2026-yil 21-avgust (juma) soat 17:00dan - 22-avgust (shanba) soat 10:00gacha (Yaponiya vaqti bilan)

## H Festivalda ishtirok etish xarajatlari (Taklif etilgan davlatlar):

Festival tashkilotchilari har bir mamlakat/mintaqadagi vakillik maktabidan qatnashayotgan 3 nafar ishtirokchi va 1 nafar mas’ul shaxs (o’qituvchi) uchun Yaponiya borish-kelish ya’ni ikki tomonlama transport xarajatlarini hamda festival davomida turar joy (turar joy va ovqatlanish xarajatlari) ni o’z zimmasiga oladi

\*Har bir mamlakat/mintaqadagi aeroportga boradigan ichki transport va ovqatlanish xarajatlari ishtirokchilar tomonidan qoplashi lozim.

\* Festival davomida zarur bo’lgan turar joy xarajatlarinigina tashkilotchi o’z zimmasiga oladi.

## I Suratga olishdagi ogohlantirishlar:

- Suratga olish paytida dronlardan foydalanmang.
- Kamera sozlamalarida aspetsifikatsiyalar mavjud emas.
- Surat joylashuvi formati muhim emas. (O’rnatilgan tartib va format onlayn ovoz berishda aks ettiriladi)

## J Qo’shimcha ma’lumotlar

(1) Festival davomida o’tkaziladigan Higashikava shahridagi binolarda Wi-Fi o’rnatilgan, ammo mobil telefondan tashqarida foydalanmoqchi bo’lsangiz, SIM-karta, cho’ntak Wi-Fi va hokazolarni tayyorlab qo’ying.

(2) Higashikava shahri tarjimon xodimlari festival davomida har bir mamlakat / mintaqa maktab ishtirokchilariga hamrohlik qilishadi. Ammo barcha davlat ishtirokchilarning tilida gaplasha oladigan tarjimon xodimlari bilan ta’minlanishi kafolatlanmasligi mumkinligini inobatga olishingizni so’raymiz.





